


JADIDLAR HARAKATI: TARIXIY ZARURAT, MILLIY UYG'ONISH VA MA'RIFATGA ASOSLANGAN ISLOHOT DASTURI.



Olloberdiyeva Shodiyona Baxrom qizi
Termiz Davlat pedagogika instituti
Pedagogika va Ijtimoiy fanlar fakulteti
Pedagogika ta'lif yo'nalishi 1-bosqich talabasi
E-mail: shodiyonaolaberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan jadidchilik harakati chuqur tarixiy-falsafiy nuqtai nazaridan yoritiladi. Harakatning ma'rifiy, siyosiy va madaniy asoslari, uning ilg'or vakillarining faoliyati, jadid maktablari, milliy matbuot, adabiyot va teatr orqali xalqni uyg'otish yo'lidagi sa'y-harakatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Jadidlar merosining hozirgi o'zbek jamiyatida tutgan o'rni va dolzarbliги haqida xulosa chiqariladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, uyg'onish, islohot, ma'rifat, milliy o'zlik, matbuot, maktab, teatr, Turkiston Muxtoriyati.

Kirish: Jadidchilik harakati O'rta Osiyo xalqlari tarixida uyg'onish davri rolini bajargan, zamonaviylik va milliylik g'oyalarini uyg'unlashtirgan o'ziga xos harakatdir. Uning ildizlari nafaqat ijtimoiy-siyosiy, balki diniy-ma'rifiy va falsafiy asoslarga ega. Mustamlaka sharoitida shakllangan bu harakat jamiyatni ilm-fan, madaniyat, siyosat va iqtisodiyot sohalarida o'zgartirishni o'z oldiga maqsad qilgan edi. Jadidlarning faoliyati bugungi O'zbekiston taraqqiyotida ham o'z aksini topmoqda.

Jadidchilik harakatining vujudga kelishining tarixiy-falsafiy asoslari

Mustamlaka sharoitidagi ijtimoiy inqiroz

XIX asr oxirida Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishi mahalliy jamiyatda siyosiy mustaqillik, iqtisodiy erkinlik va madaniy rivojlanishning inqirozga uchrashiga sabab bo'ldi. Bu inqiroz oqibatida xalqda turmush darajasi tushib

ketdi, ilm-fan va ta’lim rivojisiz qoldi. Shunday murakkab sharoitda jamiyatning ilg‘or qatlamida yangicha tafakkur shakllana boshladi.

Islom tafakkuri va Yevropa uyg‘onish g‘oyalari sintezi

Jadidlar nafaqat mahalliy an'anaviy bilimlar bilan, balki Rossiya va Yevropa ma’rifatchiligi bilan ham tanish edilar. Ular islomning asl mohiyatiga, ya’ni aql, ilm, taraqqiyot g‘oyalariga tayanib, jamiyatni uyg‘otish yo‘lini tanladilar. Bu jihatdan, jadidlar musulmon dunyosining o‘ziga xos “ma’rifiy uyg‘onish” vakillari bo‘lib chiqdilar.

Jadidlarning asosiy islohot yo‘nalishlari

Yangi usul maktablari va ta’limdagi burilish

Jadidlar ilk islohotni ta’limdan boshladilar. Eski usulda faqat Qur’on, sarf-nahv o‘rgatiladigan maktablarga qarshi ravishda, yangi usul maktablarida arifmetika, geografiya, tarix, tabiiy fanlar, chizmachilik, chet tillari o‘rgatildi. Ta’limda tovush asosidagi yondashuv (fonetika) joriy qilindi.

Jadid maktablari nafaqat bilim, balki tarbiya, mustaqil fikr, milliy ongi shakllantirish maskaniga aylandi. Abdulla Avloniy yozganidek:

“Millatni saodatga chiqaradigan – ma’rifatdir, ma’rifat esa – tarbiya bilan boshlanadi.” Milliy matbuot va jamoatchilik fikrining uyg‘onishi

Jadidlar xalqni uyg‘otishning eng samarali yo‘li — matbuot deb bildilar. “Taraqqiy”, “Shuhrat”, keyinchalik “Oyna”, “Sadoi Turkiston” kabi gazeta-jurnallar xalq orasida ilg‘or fikrlar yoyilishiga sabab bo‘ldi. Bu nashrlarda savodsizlik, xurofot, loqaydlik, ijtimoiy tengsizlik tanqid qilinar, ilg‘or Yevropa tajribasi targ‘ib etilar edi.

Milliy teatr, adabiyot va publisistika orqali uyg‘otish

Jadidlarning madaniyat sohasidagi xizmatlari ham beqiyosdir. Behbudiy 1911-yilda Samarqandda “Padarkush” pyesasini sahnalashtirib, o‘zbek teatrining poydevorini qo‘ydi. Bu orqali ular og‘zaki targ‘ibotdan tashqari, sahna orqali ham xalq ongini uyg‘otishga kirishdilar.

Jadidlar va siyosiy uyg‘onish

Turkiston Muxtoriyati – milliy mustaqillik harakati

1917-yil Oktyabr inqilobidan so‘ng, jadidlar siyosiy imkoniyatlardan foydalanib, o‘zlarining eng katta orzusi — Turkiston Muxtoriyatini e’lon qildilar. Bu tarixiy voqeа o‘zbek va umuman turkiy xalqlarning siyosiy uyg‘onishining eng yuqori cho‘qqisi edi. Ammo bu muxtoriyat bolsheviklar tomonidan qisqa muddatda qulatildi va minglab jadidlar ta’qib qilindi.

Qatag‘on va unutilgan avlod

1930-yillarda Sovet hukumati ko‘plab jadidlarni "xalq dushmani" deb e’lon qilib, ularni otib tashladi yoki Sibirga surgun qildi. Bu milliy ziyolilarning butun bir avlodini yo‘qotish bilan barobar bo‘ldi.

Jadidlar merosi va zamnaviy O‘zbekiston

Ularning g‘oyalari bugungi islohotlarga asos bo‘lmoqda

Bugungi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar — ta’lim tizimidagi modernizatsiya, milliy o‘zlikni anglash, ilm-fan rivoji, ommaviy madaniyatdagi uyg‘onish — barchasi jadidlar orzu qilgan jamiyat modeliga yaqinlashmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasida ham ma’rifat, milliy qadriyat, zamnaviy tafakkur asosiy tamoyillardan biri hisoblanadi.

Xulosa

Jadidchilik harakati — nafaqat tarixiy fakt, balki ma’naviy, siyosiy va intellektual yuksalishning ramzidir. Ularning faoliyati O‘zbekistonda milliy uyg‘onish, zamnaviy ta’lim, matbuot, adabiyot, teatr va siyosiy tafakkur asoslarini yaratdi. Jadidlar — millat o‘zligini yo‘qotmasligi, ilmli va ma’rifatli jamiyat qurilishi yo‘lida o‘z hayotini qurban qilgan avloddir. Ularning merosi bugungi avlod uchun ibrat va ilhom manbaidir.

Foydalaniman adabiyotlar

1. Qosimov B. Jadidchilik tarixidan saboqlar. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1992.
4. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

5. Saidov A. Turkiston jadidlari: milliy uyg'onish tarixidan lavhalar. – Samarqand, 2010.
6. Nazarov Q. Jadid adabiyoti: taraqqiyot yo'llari. – Toshkent, 2017.